

Aholini ro'yxatga olish tadbiriga ko'rilayotgan tayyorgarlik ishlari bo'yicha OAVga intervyu matni

Aholini ro'yxatga olishga ko'rilayotgan tayyorgarlik ishlari tizimli ravishda davom ettirilmoqda. Biz joylarda, mahallalarda, maktablarda va boshqa ta'lim dargohlarida aholini ro'yxatga olishning mazmun-mohiyati va maqsad-vazifalari to'g'risida batafsil tushuntirish berib kelyapmiz.

Mazkur tadbir natijasida aholining aniq soni, yoshi, jinsi, fuqaroligi, milliy tarkibi, oilaviy ahvoli, ma'lumoti, kasbi, uy-joy bilan ta'minlanganlik darajasi, yashash sharoitlari, mehnat resurslari, bandligi va ishsizligi, daromad manbalari to'g'risida to'liq va aniq ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

Yig'ilgan bu ma'lumotlar respublika va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish, ayollar va bolalar salomatligini yaxshilash va oilalarga yordam ko'rsatish bo'yicha dasturlarini manzilli ishlab chiqishda muhim axborot bazasi bo'lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, aholini ro'yxatga olish natijalari milliy barqaror rivojlanish maqsadlari indikatorlarini shakllantirish, xalqaro reytinglarda mamlakatimizning o'rnini yuksaltirish, xorijiy investorlarni mamlakatimizga kengroq jalb qilish, investitsion muhitni yanada yaxshilash va turizm salohiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi.